



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/2 (11)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSIOLOGIYA

Saydivalieva X.X., Kadirova T.J. Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari	4
Мусаева М.И. Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
Inoyatova S.J. Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari	17
Ilxamova Z. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki	24
Zokirov S., Xusanova S. O'zbekistonda ta'lim davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

OILA VA JAMIYAT

Hojiyev R.B. Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I. Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	40
Abdibosитov A. Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar	46
Muhitdinova D. Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish	51

PSIXOLOGIYA

Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	56
Xusanov S. "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'rganilishi	63
Аскарлова Г., Каримова Н. Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи	68
Nomozova R.O. Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari	75
Imonova M.B. O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
G'ulomqodirov E.A. Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini	85

PEDAGOGIKA

Qurbonova B.N. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	91
---	----

DEMOGRAFIYA

Dusnayev Sh.E. O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili	96
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Rabiyev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



Ilxamova Zumrad,

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

Strategik tahlil va prognozlashtirish bo‘limi kichik ilmiy xodimi

Email: zumrad.i@mail.ru

O‘ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI

Annotatsiya. Ushbu maqolada statistika agentligining ma’lumotlariga asosan xotin-qizlarning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo’shayotgan hissasi statistik tahlil qilingan, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini oshirish, ularni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi hamda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotidagi o’rni yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy faollik, xotin-qizlar, tahlil, statistik ma’lumotlar, muammolar, tadbirkorlik, jamiyat, huquq.

Аннотация. В данной статье, на основе данных агентства статистики сделан статистический анализ вклада женщин в социально-экономическое развитие страны, роль женщин в повышении социально-экономических знаний, вовлечении их в экономические процессы а также их роль в развитии малого бизнеса и предпринимательства.

Ключевые слова: социально-экономическая активность, женщины, анализ, статистические данные, проблемы, предпринимательство, общество, право.

Annotation. In this state, the agency's data statistics are based on statistical analysis of socio-economic development, the role of social and economic knowledge, the development of economic processes, as well as the role and development of business and entrepreneurship.

Key words: socio-economic activity, women, analysis, statistical data, problems, entrepreneurship, society, law.

Kirish. O‘zbek ayollarining nafaqat oila va farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, balki mamlakatimiz taraqqiyotiga qo’shayotgan hissasi ham beqiyos. Bugun yurtimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston islohotlari inson manfaatlarini ustunligini ta’minlash barobarida jamiyatda xotin-qizlar mavqeyini oshirish, ularning huquq va

imkoniyatlarini ustuvor qadriyatlardan biri sifatida himoya qilishga qaratilgan. Zero, xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ro‘yobga chiqarilmoqda¹. Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilayotgani

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.03.2019 йилдаги “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тadbirkorlik фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4235-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4230944>

bois ularning jamiyatda tutgan o'rnini mustahkamlanib bormoqda.

Ayollarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, jumladan, bandligini ta'minlash, sog'ligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning turmush darajasini yaxshilashga e'tibor yuksak darajaga ko'tarildi, desak xato bo'lmaydi.

Xususan, so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo'lida muhim choralar ko'rildi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish vazifalardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra², 2023-yilda O'zbekiston aholisi soni 36 799,8 mingga yetgan, shulardan 49,7 foizini yoki 18 274,8 ming nafarini xotin-qizlar tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. 2019–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi umumiy aholisiga nisbatan xotin-qizlar soni

Maqsad va uni asoslash. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi barcha fuqarolar uchun ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Ta'lim tizimining barcha darajalariga kirishda qizlar uchun qonunchilik tomonidan to'siqlar yo'q. Umumta'lim muassasalari bolalarga ta'lim beruvchi, ularning har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasadir³.

2023–2024-o'quv yilida oliy ta'lim tizimida gender nomutanosibligi mavjud bo'lgan, talaba

² Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги статистика агентлигининг расмий маълумотлари www.stat.uz

³ Мухитдинова Ф. Хотин-кизлар сиёсий фаоллигини оширишда сиёсий фанларнинг ўрни // Ўзбекистонда политологиянинг янги босқичи. Республика илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: 2022.

qizlar 47,5 foizni va talaba yigitlar 52,5 foizni tashkil etga (2-rasm).



2-rasm. 2023–2024-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni (% da)

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022-yilda respublikamizda tayanch doktorantura bosqichida tahsil oluvchilar soni 5747 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 3185 nafarni, bitiruvchilar esa 1143 nafarni tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. 2019–2022-yillarda tayanch doktorantura bosqichida tahsil oluvchilar soni

Doktorant ayollarning fan sohalari bo'yicha taqsimlanishi shuni ko'rsatdiki gumanitar fanlarda 24,4%, tabiiy fanlarda 24,1%, ijtimoiy fanlarda 21,8%, filologiyada 18,3, tibbiyot fanlarida 16,8%, pedagogika fanlarida 11,7% ayollar tahsil olayotgani kuzatildi.

2022-yilda respublika bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajargan tadqiqotchi mutaxassislarning soni 32 541 nafarni tashkil etgan, shulardan 13 651 nafari xotin-qizlar bo'lgan (42%), shulardan 710 nafari ayol fan doktori va 1899 nafari fan nomzodi hisoblanadi (4-rasm).




4-rasm. 2018–2022-yillarda respublika bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajargan tadqiqotchi mutaxassislarning soni

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Aholining samarali mehnat qilishi, moddiy manfaatdorligini oshirish uchun munosib shart-sharoit yaratib berish mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Zero, mehnatga layoqatli kishilarning bandligini ta'minlash fuqarolar turmush farovonligini oshirish, hayot darajasini yuksaltirishning muhim omilidir. Shu bois istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy sohani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilib, sohaning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asosi yaratildi. Shundan kelib chiqib, har yili yangi ish o'rinlari tashkil etish va bandlikni ta'minlashga doir dasturlar qabul qilinib, uning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda, pirovardida ishsizlik darajasi yil sayin kamayib bormoqda.


Mehnat bozorida faol hamda aniq maqsadga qaratilgan shu kabi chora-tadbirlar aholi bandligini ta'minlash, real daromadlarini oshirish, natijada hayot darajasini yuksaltirishga mustahkam poydevor yaratadi. Binobarin, aholini ish bilan ta'minlash mamlakatimizda nafaqat iqtisodiy, balki katta ijtimoiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida aholining jinsi bo'yicha iqtisodiy faollik darajasi taqsimlanishi shuni ko'rsatdiki, 2022-yilda ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 66,9% va erkaklarning iqtisodiy faollik darajasi 80,0% ni tashkil etdi, yillar davomida xotin-qizlar ulushi oshib kelmoqda (5-rasm).



5-rasm. 2018–2022-yillarda aholining iqtisodiy faollik darajasi (% da)

Iqtisodiyotda band bo'lgan xotin-qizlar soni 2022-yilda 5647,6 ming kishini tashkil etdi va 2021-yilga nisbatan 52,3 ming kishiga oshdi. Jami bandlarda xotin-qizlar ulushi 41,2 foizni tashkil etdi (6-rasm).



6-rasm. 2018–2022-yillarda aholining iqtisodiyotda band bo'lganlar soni

Iqtisodiy faoliyat turlari tahlili bo'yicha 76,6% xotin-qizlar sog'liqni saqlash, 72,7% i ta'lim, 50,7% i yashash va ovqatlanish xizmatlari, 47,6% i ulgurji va chakana savdo sohalarida bandligi aniqlandi.

Statistika agentligining 2023-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, rahbar kadrlar tarkibidagi ayollar ulushi 27,7 foizni (2020-yilda – 26,5 foiz) tashkil etgan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatidagi (deputatlik, senatorlik o'rinlari) ayollar ulushi mos ravishda 32,0 va 25,0 foizni, vazirlik hamda davlat qo'mitalarida vazir (vazirga tenglashtirilgan) lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan ayollar ulushi 5,7%; ma'muriy boshqaruv xodimlari tarkibida ayollarning ulushi 28,2%; ichki ishlar xodimlari tarkibida ayollarning ulushi 10,1%; sudyalor orasida ayollarning ulushi 14,0% ni tashkil etdi.

Mamlakat va jamiyat taraqqiyotiga, respublikamizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori oshirishga, aholi farovonligini yuksaltirishga hissa qo'shishga tayyor, yuqori malakali kadrlarni jalb etish zarur. Buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, turli sohalarida band xotin-qizlarning salohiyatini oshirish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun malakali xotin-qiz kadrlarini tayyorlash, ular bilan ishlash, ularni davlat organlarida ishlash uchun "vakillik" deb atalgan ishlarga tayyorlash zarur.

O'zbekistonda xotin-qizlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etishga qaratilgan davlat siyosatining ahamiyati, kichik biznes va tadbirkorlik

harakatining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini hamda ularda xotin-qizlar ishtiroki masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa o'z navbatida, xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga bosqichma-bosqich kirib borishidan dalolat beradi. Bu jarayonda milliy hunarmandchilik muhim o'rin tutadi⁴.


Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo'nalish va maktablar hosil qilgan. Bu esa o'z navbatida, yurtimiz aholisining ushbu hunarmandchilikning ma'lum sohalarida faol mehnat qilayotganidan dalolat beradi. O'zbekistonda chevarchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik kabi hunar turlari bilan xotin-qizlar uyda o'tirib shug'ullanishgan. Hunarmandchilikda ustoz-shogird an'analari mavjud bo'lib, avloddan avlodga o'tib keluvchi o'ziga xos tartib-qoida va me'yorlar, axloqiy mezonlarga amal qilingan.

Davlat soliq oganlarida ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar soni 2023-yilda 102 802 nafarni tashkil etgan, bu esa 2019-yilga nisbatan 25 507 taga ko'payganini ko'rsatmoqda, demak, yillar davomida tadbirkor xotin-qizlar soni oshib bormoqda (7-rasm).




7-rasm. 2019–2023-yillarda Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni

Yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlarni viloyatlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand viloyati (12 436), Toshkent shahri (12 047) va Toshkent viloyatida (10 968) kuzatildi (8-rasm).



8-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar soni (viloyatlar kesimida)

Respublikamizda 2023-yilda davlat soliq organlarida ro'yxatdan o'tgan 1 105 366 ta o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlar mavjud, ya'ni 2020-yilga nisbatan 4 baravar ko'paygan, jami o'zini o'zi band qilganlar ichida xotin-qizlar 43,6 foizni tashkil etdi (9-rasm).



9-rasm. Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tib, o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlar soni

O'zini o'zi band qilgan xotin-qizlar, asosan, bosh kiyimlar va to'qimachilik buyumlarni tikish, uy xo'jaligini yuritish va uy ishlarini bajarish, bolalarga qarash, tomorqa uchastkalarida ishlash va boshqa turdagi ishlar bilan band⁵.

Yakuniy qism. Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilishga, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, oila byudjetini oshirishda xotin-qizlarning ham faolligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, xotin-qizlarni faolligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi mamlakatimizning

⁴ Bezrukova A.A., Kalashaova D.A. Sociocultural transformations in a modern Adygh family // Bulletin of Maikop State Technological University. 2016.

⁵ Гендер тенгликни таъминлаш ва барча хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш [Электронный ресурс] <http://mineconomy.uz/uploads/5.pdf> (дата обращения 20.07.2020)

muhim qadamlaridan sanaladi. Davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning ishtirokiga toʻsqinlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy manfaatlarini tenglik tamoyili asosida hal qilish maqsadga muvofiq. Bu kabi vazifalar barcha xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, salohiyat va imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim⁶.

Bu fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida toʻlaqonli

ishtirok etishiga erishish, gender tenglikni taʼminlash boʻyicha olib borilayotgan davlat siyosati naqadar toʻgʻriligiga ishonch hosil qilamiz. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni ishga joylashtirish, uy-joy bilan taʼminlash, bir soʻz bilan aytganda, har qanday muammolarning yechimi yuzasidan aniq, huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan va samarali natijalar bermoqda.

Bugungi kun talabi xotin-qizlarni yangicha yondashuv, yangicha gʻoya va yangicha tashabbuslar bilan chiqishlariga koʻmak berish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar, siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini taʼminlashdan iborat.

⁶ Хаитова А. Хотин-қизлар сиёсий фаоллигини ошириш масалалари // <https://cyberleninka.ru> > 2020

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.03.2019 йилдаги “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини кўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4235-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4230944>
2. Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги статистика агентлигининг расмий маълумотлари www.stat.uz
3. Мухитдинова Ф. Хотин-қизлар сиёсий фаоллигини оширишда сиёсий фанларнинг ўрни // Ўзбекистонда политологиянинг янги босқичи. Республика илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: 2022.
4. Bezrukova A.A., Kalashaova D.A. Sociocultural transformations in a modern Adygh family // Bulletin of Maikop State Technological University. 2016.
5. Гендер тенгликни таъминлаш ва барча хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш [Электронный ресурс] <http://mineconomy.uz/uploads/5.pdf>(дата обращения 20.07.2020)
6. Хаитова А. Хотин-қизлар сиёсий фаоллигини ошириш масалалари // <https://cyberleninka.ru> > 2020

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/2 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilov ko‘chasi 1-G uy.